# HY102 Nyu-York - Toshkent reysi haqida rasmiy xabar

**2023 11 Dekabr**

Nyu-Yorkdan Toshkentga uchayotgan Uzbekistan Airways aviakompaniyasi havo kemasida zoʻravonlik qilgan yoʻlovchi tufayli Sankt-Peterburg aeroportiga favqulodda qoʻnishga majbur boʻldi. Hodisa 11-dekabr kuni Toshkent vaqti bilan 07-35 da HY102 Nyu-York – Toshkent reysida sodir boʻldi. Boeing 787 havo kemasi sardori yoʻnalish bo'ylab muqobil aerodromga qo'nishga qaror qildi. Bortdagi muammo haqida radioaloqa orqali xabar berildi. 1991-yilda tugʻilgan Oʻzbekiston fuqarosi politsiya xodimlari tomonidan reysdan yechildi. Kerakli proseduralar amalga oshirilgach, havo kemasi belgilangan aeroportga parvozni davom ettiradi.

HY102 reysining Toshkentga yetib kelishi Toshkent vaqti bilan 13-00 ga belgilangan.